

## **JURNALISTIKA SOHASIGA OID TERMINLARNING LUG'ATLARDA AKS ETISHI**

*Raximova Kumush Mahmud qizi,*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi kunda tilshunoslik fanining amaliy ahamiyat kasb etgani, jurnalistika sohasining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikdagi yangi-yangi yo'nalishlari namoyon bo'lishi, o'zbek tiliga jurnalistika sohasiga oid terminlarning milliy til xarakterida aks etishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** jurnalistika, ma'naviyat, so'z boyligi, urf-odat, xarakter, lison, til, madaniyat.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрено практическое значение науки языкознания, появление новых тенденций во взаимодействии области журналистики с другими дисциплинами, а также отражение терминов, относящихся к области журналистики узбекскому языку, в характере языка. национальный язык объясняются.

**Ключевые слова:** журналистика, духовность, лексика, традиция, характер, язык, язык, культура.

**Annotation.** In this article, the practical significance of the science of linguistics, the emergence of new trends in the interaction of the field of journalism with other disciplines, and the reflection of terms related to the field of journalism to the Uzbek language in the character of the national language are explained.

**Key words:** journalism, spirituality, vocabulary, tradition, character, language, language, culture.

Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Muayyan adabiy tilning so'z boyligi o'z tarkibida maxsus

tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikasi mavjud. Umumiste'mol so'zlardan farqli ravishda doim maxsus tushunchalami anglatish, ifodalash uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan terminlar o'zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari zaminida tarkib topdi va takomillashdi. Terminologiya bu millatning o'tmishi, buguni va kelajagini ko'rsatuvchi oynadir. Terminologiyaga oid tadqiqotlardan ma'lumki, o'zbek tili terminologiyasi tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. O'zbek olimlaridan A.B.Pardayev, D.B.Urinbayeva, D.A.Islamova, R.Doniyorov, O.Usmonov, B.Alimov, H.Dadaboyev, M.Ismoilov, A.Hojiyev, A.Qosimov, D.Xudoyberganov, O.Tursunova, Z.Muqimov, A.Sharapov, X.Y.Bekmuhammedov va boshqalar terminologiya yo'nalishi bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlarini olib borganlar. Jumladan, O.Usmonov va R.Doniyorov tomonidan yaratilgan 1979-yili "Ruscha internatsional so'zlar izohli lug'ati", X.Y.Bekmuhammedovning "Tarix terminlari izohli lug'ati", M.Ismoilov, A.Sharopovlarning "Tarix atamaları lug'ati", H.Dadaboyevning "Tarixiy harbiy terminlar lug'ati", Z.Muqimov va O.Tursunovalar "O'zbek davlatchiligida qo'llangan tarixiy-huquqiy atamalar", A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati", D.Xudayberganovanning "Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati", A.Qosimovning to'rt jilddan iborat "Tibbiy terminlar izohli lug'ati", ota-o'g'il Omonturdiyevlar tomonidan 1500 dan ortiq istilohlar jamlangan "Ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'ati" mustaqillik yillarida e'lon qilindi va o'zbek tili terminologiyasi leksikografiyasida salmoqli o'rinlarga ega bo'ldi. Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizning xalqaro obro'yi oshib, dunyoning rivojlangan davlatlari, yirik siyosiy arboblari, fan, madaniyat va san'at vakillarining O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi yildan yilga kuchayib bormoqda. Qadimgi turkiy tilda turli terminlar qo'llanilgan bo'lib, ular ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Quyidagi mavzuviy guruhlariga oid terminologik tizimlar faol qo'llangan<sup>1</sup>:

- ijtimoiy-siyosiy terminlar;

---

<sup>1</sup> Dadaboyev H. O'zbek Terminologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 36. b.

- harbiy terminlar;
- savdo-sotiq, moliya bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi istilohlar;
- soliq va boj terminlari;
- zoonimlar;
- astroponimlar;
- anatomik terminlar;
- tibbiy terminlar;
- ma'dan nomlarlarini anglatuvchi terminlar;
- dunyo (kurra) ning to'rt tomoni va vaqt (sutka) o'lchov birligini ifodalovchi terminlar;
- ilm-fanga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlar;
- diniy tushunchalar nomlari (teonimlar);
- ekologik terminlar.

Runik bitiklar va ilk eski turkiy til obidalari leksikasi tarkibida yuqoridagi terminologik tizimlarning mavjudligini turkiyshunoslikda olib borilgan izlanish va maxsus tadqiqotlar tasdiqlagan. O'zbek leksikografiyasining shakllanishida Alisher Navoiy va o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari asarlariga tuzilgan lug'atlarning roli sezilarlidir. Jumladan, Husayn Boyqaro ko'rsatmasiga binoan 1405-yilda Toli Imoni Hiraviy tomonidan tuzilgan "Badoye ul-lug'at", Turkiya (Rum) da yaratilgan muallifi noma'lum chig'atoycha (eski o'zbekcha)-usmonli turkcha "Abushqa" (XVI asr), Muhammad Mahdiyxonning eski o'zbekcha-forscha "Sanglox" (1748), Fathali Kojar Qazviniyning 1862-yilda tuzilgan "Lug'ati atrokiya", Ya'qub Chingiyning "Kelurnoma", Shayx Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy" kabi asarlar o'zbek lug'atnavisligining durdonalari safidan o'rin olgan<sup>2</sup>. XIX asrning 70-yillaridan e'tiboran o'zbek terminologiyasi rus tili orqali G'arbiy Yevropa tillaridan kirib kelayotgan o'zlashmalar ta'sirida rivojlandi. XX asrning 30-yillari o'zbek tilining ko'plab

---

<sup>2</sup> Pardayev A., Urinbayeva D., Islamova D. O'zbek terminologiyasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 68. b.

terminologik lugʻatlari tuzilib nashr etildi. Birinchilardan boʻlib Ulugʻ Tursunov oʻzbek tili terminologiyasi masalalariga oydinlik kiritishga harakat qildi: “Til – terminologiyada burjuaziya intilishlariga qarshi”, “Oʻzbek terminologiyasi masalalari”, “Oʻzbek adabiy tilida soʻz – terminlar tanlash prinsiplari” kabilar. Oʻzbek terminologiyasida oʻtgan asrning 50-yillaridan keyin qator salmoqli ilmiy ishlar amalga oshirilgan, yaʼni nomzodilik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlangan. Jumladan, N.Mamatov, S.Ibrohimov, T.Dadaxonova, T.Oʻrunov, S.Usmanov, N.T.Hotamov, R.Doniyorov, M.Asomiddinova, S.A.Azizov, A.I.Qosimov, S.Akabirov, R.Doniyorov, O.Ramazonov, A.Madvaliyev, H.Dadaboyev, Q.Sapayev, A.Madvaliyev, T.Tursunova, A.Sh.Sobirov, N.M.Ikromova, Z.M.Mirxoliqov, H.Shamsiddinov kabi ilmiy tadqiqotlarda oʻzbek tili terminologiyasini tartibga solish, undagi qator chalkashliklarning oldini olish kabi masalalar oʻrin olgan<sup>3</sup>. Globallashuv va kompyuterlashtirish asrida Oʻzbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati safidan oʻrin olishi davlatlararo iqtisodiy, siyosiy, madaniy va h.k. aloqalarning qizgʻin, jadal oshishiga olib keldi. Bunday munosabatlarning ijobiy natijalari nafaqat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy hayotda, shuningdek, tilda ham oʻz ifodasini topmoqda. Hozirgi kunda turli sohalarga oid terminlar mavjud boʻlib, ommalashib bormoqda. Xususan, kompyuter va axborot kommunikatsiya sohaslarining rivojlanishi natijasida ushbu sohaga doir terminlar xalq tilida ham mustahkam oʻrin olyapti. Hozirgi davr jurnalistikasi dastlab XVII asr boshidagi ilk davriy bosma nashrlar qiyofasida yuzaga kelgan. XIX asrning 90-yillarning oxirida rasmiy matbuot uchun yangi til shakllana boshladi. Bugungi axborot glovallashtirish davrida jurnalistika jamiyatning eng muhim ijtimoiy tizimidir. Axborot asri belgilari jamiyatda namoyon boʻlib borar ekan, axborot almashish va internet texnologiyalari taraqqiyoti jadal tus olgani sababli jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya sohasini rivojlantirish, bu yoʻlda OAV faoliyati va ommaviy axborot sifatini oshirish muhim vazifa boʻlib qolmoqda. Ushbu masalalar jurnalistik taʼlimning hamda jurnalistik nutq madaniyatining

---

<sup>3</sup> Pardayev A., Urinbayeva D., Islamova D. Oʻzbek terminologiyasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 83. b.

takomillashuvi asosida o'z yechimlarini topib boradi. Matbuotning jamiyat hayotidagi ahamiyati shu qadar kattaki, insoniyat kashf etgan har bir yangilik, har bir imkoniyat matbuot uchun qo'llaniladi, ya'ni ommaga axborot tarqatishning har qanday usuli u xoh bosma so'z, xoh og'zaki bo'lsin matbuot sifatida foydalanish mumkinmi-yo'qmi sinab ko'riladi. O'zbek olimlardan O.Tog'aev, Q.T.Ernazarov, Y.M.Mamatova, I.E.Toshaliyev, Sh.Q.Ernazarov, M.Xudoyqulov, T.Qozoqboyev kabi ko'plab tadqiqotchilar jurnalistika sohasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan O.Tog'aev "O'zbek badiiy publitsistikasi", Q.T.Ernazarov, Y.M.Mamatova, I.E.Toshaliyev, Sh.Q.Ernazarov "Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti", T.Qozoqboyev va M.Xudoyqulov "Jurnalistikaga kirish" nomli ilmiy o'quv qo'llanmalarini yaratganlar. Har bir soha o'z nazariy asoslariga ega. Dastlab hunar deb qaralgan jurnalistika ham soha olimlarining va amaliyotchi jurnalistlarning mehnatlari evasiga uzoq yillar davomida o'z nazariy asoslariga ega bo'ldi va alohida kasb turiga aylandi. Shu bilan birga, boshqa kasblardan farqli o'laroq o'zining xususiy jurnalistik terminlariga egadir. Biroq ushbu terminlar ustida leksikografik tadqiqotlar hali hanuz olib borilmagan. Jurnalistik terminlarning izohi aholiga tushunarli bo'lishi ommaviy axborot sohalarining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shunday ekan, jurnalistik lug'at yaratish tilshunosligimizning dolzarb masalalaridandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Pardayev A., Urinbayeva D., Islamova D. O'zbek terminologiyasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 9. b.
2. Dadaboyev H. O'zbek Terminologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 5. b.
3. Nashirova Sh. Jurnalistik termonlarning o'rganilish aspektlari. – Toshkent: So'z san'ati xalqaro jurnali, 2021. 6-son. – 22. b.
4. Felber H. Terminology Manual. – Paris: UNESCO, Infoterm, 2002. – 54. b.